

SIYOSIY JARAYONLARNI TADBIQ ETISH METODLARI

Baxtiyorov Shaxriyor Umidjon o'g'li

O'zbekiton Milliy universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Barcha sohalarni o'rganishlikda albatta biror usul yoki metoddan foydalaniladi. Siyosatshunoslikda ham siyosiy jarayonlarni o'rganish va tadbiq etish bo'yicha ma'lum bir metodlardan foydalangan holda o'rganamiz. Ushbu maqolada siyosiy jarayonlarni tadbiq etish metodlarini tahlil qilamiz.*

Kalit so'zlar: *klassik davr, Institutsional davr, Tizimli davr, Empirik usul, Antropologik usul va boshq.*

“Metod” (yun. “metodos” — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo'linadi²³:

Yalpi umumiy bilish metodlari — hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham qo'llaniladigan umumiy va universal metodlar — metodologiya;

Umumiy bilish metodlari — bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o'tish chegarasi)da qo'llaniladigan bilish metodlari;

Xususiy yoki maxsus metodlar — ayrim fan doirasida qo'llaniladigan bilish metodlari.

Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan Metod bilan ilmiy nazariya funk-siyasiga ko'ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi. Demak, metod bu ilmiy nazariyalarni o'rganishdagi bir necha usullar yig'indisi. Biror bir sohani yoki ilmiy nazariylarni o'rganish jarayonida bevosita metodlardan foydalanamiz, buning natijasida yangi ilmiy nazariyalar paydo bo'lishiga zamin yaratgan bo'lamiz. Qandaydir metod boshqa bir metod yaralishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

²³ [Metod haqida — U kim, bu nima — QOMUS.INFO](https://qomus.info)

Siyosatshunoslik metodlari quyidagi davriy rivojlanishga ega:²⁴

1)Klassik davr(Antk davrdan to XIX asrgacha)- bu davrda deduktiv, mantiqiy, falsafa, aksealogik yondashuvlar siyosatshunoslikning asosiy metodlari bo'lib xizmat qilgan.

2)Institutsional davr(XIX asr o'rtalaridan to XX asr boshlariga qadar)- bu davrda tarixiy_qiyosiy va normativ-institutsional usullar siyosatshunoslik metodlariga aylandi.

3)Bixivorialistik davr(1970-yildan to hozirgi kunlarga qadar)- bu davrda miqdoriy usullardan foydalanish orqali nazariy va empiric usullar siyosatshunoslik metodologiyasi yaratilgan.

Nazariy usullar:

1.Institutsional usul. Siyosiy institutlarni tuzilishi va faoliyatini o'rganish usulidir. Bu usul tushuntirish usuli emas, balki tavsiflovchi usuldir. U me'yoriy hujjatlarga muvofiq institutlarni defakto emas, deyure o'rganishdir.

2.Kompravistik usul. Qiyosiy usul ham deb yuritilib, muayyan siyosiy jarayonlarning umumiy xususiyatlari, ularning o'xshash jihatlari, siyosiy institutlarni va jarayonlarni taqqoslash usulidir.

3.Psixologik usul. Subyektning siyosiy jarayonlardagi xatti-harakatlari va ruhiy olatlarini o'rganish usulidir.

4.Tizimli metod. Siyosiy jarayonlarni barcha tarkibiy qismlarini o'zaro ta'sir qiladigan murakkab mexanizm sifatida tahlil qilish.

5.Antropologik usul. Siyosiy jarayonlarda uning ishtirikchilarini biologik va ichki fazilatlariga bog'liq jarayonni o'rganish usuli.

6.Tarixiy usul. Siyosiy jarayonlarni o'tmishda shakllanishi va hozirgi davrdagi rivojlanishini o'rganish.

Emperik usullar:

a.Kuzatish usuli. Siyosiy jarayonlar va hodisalarni bevosita qayd etish orqali birlamchi ma'lumotlarni yig'ish usulidir.

b.So'rov usuli. Siyosiy jarayonlar va hodisalarni yoki bilvosita ishtirokchilarning so'rovidir.

c.Intervyu usuli.

d.Delfi usuli.

e.Cross Milliy tahlil usuli.

Demak, siyosiy jarayonlarga metodni qo'llashdan maqsad:

– Siyosiy jarayonlardagi umumiy o'xshashliklarni topish;

– Siyosiy jarayonlardagi o'zgaruvchilarni ya'ni takrorlanmaydiganlarni topishdan iboratdir;

Cross Milliy tahlil usuli ko'pincha Binar uslubi ham deyiladi. Bu tahlil usuli quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1.Muammoni va tadqiqipt gipotezasini konseptuallashtirish;

²⁴ <https://www.amerikaovozi.com/a/a-36-2006-09-19-voa2-93343499/795197.html>

2. Jarayon o'zgaruvchilarini va ko'rsatkichlarni tanlash, kuzatish, o'lchash;
3. Konseptual dasturga muvofiq ravishda siyosiy jarayon o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash;
4. Gipotezani tekshirish va nazariya yaratish;
Uning strukturasi;
1. Siyosiy jarayon tahlilida birinchi, ikkinchi, uchunchi dunyo mamlakatlarini ajrata olish.
 2. Jarayonda sharq, g'arb, janub, shimol delemmasi, geografik nuqtasi nazardan emas, madaniy me'zonlarga ko'ra ajratilishi zarur;
 3. Sivilizatsiyalar bo'yicha jarayonni tavsiflash;
 4. Demokratik tamoyillar bo'yicha jarayonni tavsiflash;
Xulosa qilib aytganda, tizimli tahlil metodi:
 - a. Meriyem, Lassuel, Uayt olib kirgan bixovorizm siyosiy jarayonlarda shaxsning xatti harakatlarini kuzatish;
 - b. Parsons, Iston, Almond struktur institutsional, siyosiy tizim va uning bajaradigan funksiyalari orqali;
 - e. Dauns va Riker olib kirgan oqilona tanlov siyosiy jarayon subyektlari irratsional va ratsional siyosiy harakatlarini o'rganish orqali;
 - d. Xantington va Dyuverjelar olib kirgan institutsional va neoinstitutsional siyosiy institutlarni modellashtirish orqali metodologiyasi orqali quriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Metodologiya>
- 2) Metod haqida — U kim, bu nima — QOMUS.INFO
- 3) <https://www.amerikaovozi.com/a/a-36-2006-09-19-voa2-93343499/795197.html>